

Yoshlar – elga tayanch

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rahbariyati hamda "Gidorelioratsiya" fakultetiga birlashtirilgan "Lashkarbegi" MFY bilan o'zaro hamkorlik masalalari amaliy isbotini topmoqda, jumladan, tasdiqlangan reja asosida 2021 yil 16 iyun kuni kunning yarmida "Hamid Olimjon" MFY mahalla yoshlari o'rtasida shaxmat, shashka bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqaga fakultetning "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasini mas'ul bo'lib, kafedra mudiri D.Nazaraliyev birlashtirilgan bevosita ushbu tadbirni "Lashkarbegi" mahalla, Oila, xotin - qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari Z.Rasuliy va Hamid Olimjon mahalla, Oila, xotin - qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari M.Shermuhammedova, "Gidomeliorsiya" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Z. Abdurashidovlar ishtirokida musobaqa tashkillashtirildi.



Bu musobaqani hakamlari qilib "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedra professor - o'qituvchilari; I.Ro'ziyev, S.Nurjanov, S.Mansurov, J.Hamraqulov, Q.Eshquvatov, dekan muovini Z.Abdurashidovlar tayinlandi. 3 ta turdan iborat bo'lgan turnir 2 ta yo'nalish (shaxmat, shashka)da bo'lib o'tdi. Murosasiz bo'lib o'tgan ushbu sport tadbirida "Lashkarbegi" MFY jamoasi 1-o'ringa, "Hamid Olimjon" MFY jamoasi 2-o'ringa loyiq deb topildi hamda diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Tabdirni Institutimiz hududida bo'lib o'tgani ham ya'ni ikkita MFY hududidan tashqari neytral joy tanlangani musobaqa ko'tarinki ruhda va hayajonli eng asosiysi shaffof o'tishini ta'minladi. Taqdirlash marosimi mahalla faollari kelgan ota-onalar, "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasini mudiri dotsent D.Nazaraliyev Hamid Olimjon mahalla, Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari M.Shermuhammedova, "Gidomeliorsiya" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Z.Abdurashidovlar ishtirokida taqdirlandilar.



Bu kabi tadbirlar mahalla yoshlarini bo'sh vaqtlarini unumli va samarali o'tkazish bilan birga institut professor-o'qituvchilari hamda talabalari bilan do'stona aloqalarini o'rnatishga zamin yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarini mahallabay tizimida ishlash eng to'g'ri va samarali usul ekanligini yana bir bor isbotladi.

GM fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Z.Abdurashidov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati